

## DEFINITION OF INDIA IN BOBURNOMA

**Sobirov Jamshidbek Zokirjon Ogli**

Andijan State University, Faculty of History, 2nd year student

**Annotation:** This article deals with Zahiriddin Muhammad Babur's description of India, its nature, its differences from our lands, and its people in Baburnama.

**Keywords:** Zahiriddin Muhammad Babur, India, Boburnoma, Mount Kashmir, Fruit of Anba

## BOBURNOMA” ASARIDA HINDISTON TA’ RIFI

**Sobirov Jamshidbek Zokirjon O`G`Li**

Andijon Davlat Universiteti tarix fakulteti 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburnoma asarida keltirilgan Hindiston mamlakati, uning tabiatni, bizning diyorlardan o‘zgacha ekanligi, odamlari haqidagi ta’rifi borasida so‘z yuritiladi.

**Kalit so`zlar:** Zahiriddin Muhammad bobur, Hindiston, “Boburnoma” asari, Kashmir tog`i, Anba mevasi

Bobur Mirzoning Hindistonga yurishi uning 1526-yilda Panipatni fath etganidan keyingi 5-6 yillar bilan chegaralanib qolmaydi. Balki 1505-yildan keyin u muttasil Hindistonning shimoli-g`arbiy tumanlariga qo`shin tortdi. Panjob va Sindning juda ko`p tog`li va pasttekkidliklarida vaqt o`tkazar edi. Bu haqda u “Boburnoma” da batafsil yozgan. Shu bois hindlarning rasm-rusumlari, madaniyati va tillari haqidagi ma’ lumoti ortib bordi. Boburda o`qib-o`rganish, tug`ma salohiyat kuchli edi. [1.B.36]

Zahiriddin Muhamad Bobur Hindistonni o`zining mashhur asari “Boburnoma” da ham ta’ riflab o`tgan.

Hinduston birinchi, ikkinchi va uchinchi iqlimda joylashgandir. U to`rtinchi iqlimga kirmaydi. Juda ajoyib mamlakatdir. Bizning yerlarga solishtirganda mutlaqo o`zga bir olam. Tog` va daryolari, o`rmon-u sahrolari, shahar va viloyalari, hayvon va o`simliklari, odamlari va tili, yomg`iri va shamoli – hammasi boshqacha, biznikiga o`xshamaydi. Kobul tarafidagi issiq viloyatlar qaysirir jihatlari bilan Hindistonga o`xshab ketsa-da, ba`zi jihatlari mutlaqo farq qiladi. Sind daryosidan o`tilishi bilan yer-u suvlar, daraxt-u toshlar, odamlar, yo`llar, odatlar – hamma-hammasi faqat Hindistonning o`ziga xosdir. [2.B.204]

Chindan ham boshqa yurtlar bilan solishtirganda Hindiston o`zgacha ahamiyat kasb etadi. Bobur Mirzo ham Kobuldan keyin Hindistonga borganda u yerni Kobuldan ko`ra yaxshiroq deb biladi. Hindistonning go`zalligida tog`larning ham ahamiyati katta. Xususan Hindistondagi Kashmir tog`ini “Boburnoma” da shunday ta’ riflaydi:

Sind daryosining u tarafida Kashmirga tobe viloyatlar joylashgan. Garchi hozirgi paytda bu tog`dagi Pakliy va Shaxmang kabi ko`pgina viloyatlar Kashmirga bo`ysunmasalar-da, avvallari Kashmirning bir qismini tashkil etgan. Kashmirdan keyin kelailgan bu tog`da nihoyatda ko`p qabila va xalqlar, tuman va viloyatlar bor. Bu tog` aholisi Bangolagacha, hatto Muhit

dengizi qirg`oqlarigacha zich joylashgan. Bu tog`da e` tiborga molik shahar Kashmir bo`lib, undan boshqa shahar haqida hech gap yo`q. [3.B.204].

Hindistonda tog`lardan tashqari daryolar ham ko`p. daryolar Hindistonda dehqonchilikni rivojlantirishda va hosilning mo`l bo`lishida alohida o`rin tutadi. Zahiriddin Muhammad bobur o`z asarida Hindiston daryolariga o`zgacha ta`rif beradi:

Juda ko`p daryolar Kashmir tog`idan boshlanib, Hindustonni oralab oqib o`tadi. Ushbu tog`dan chiqqan olti daryo: Sind, Bixat, Chanob, Raviy, Biyax va saltaj Saxrindan shimol tarafga qarab oqib boradi. Multon atrofiga borganda bu suvlar qo`shilib, bir yerga quyiladi va uni endi sind deb ataydilar. Sind g`arb tomonga oqib tatta viloyatidan o`tgach, borib Ummon daryosiga quyiladi.

Bu olti daryodan boshqa yana: Juun, Rapat, Gumtiy, Gagar, Saro`, Gandak va yana ko`p daryolar bo`lib, ularning hammasi Gang daryosiga quyiladi va ular ham Gang deb ataladi. Bu daryo sharqqa qarab oqib, Bangola viloyati ichidan o`tib, Muxit ummoniga quyiladi. Ushbu barcha daryolarning manbayi Savalak Parbat tog`larida joylashgan. Yana Hindustonning hech qachon qor bo`lmaydigan tog`laridan chiqadigan Chanbal, Banas, Betviy va So`n kabi daryolari borki, ular ham Gang daryosiga qo`shiladi. [4.B.205].

Bunda tashqari dehqonchilikdan mo`l hosil olish uchun quduqlar qazilgan, ariqlarga suv chiqarish uchun charxlardan foydalanganlar. Ulardan qanday foydalanganliklarini Bobur Mirzo asarida ham haqida ma`lumotlarni ko`rishimiz mumkin.

Quduqning chuqurligicha uzunlikdagi ikkita arqonni xalqa qilib o`raydilar, ikki arqon orasiga tayoqlar bog`lab, u tayoqlarga g`o`zalarni mahkamlaydilar. Bu g`o`zalar mahkamlangan arqonni quduq ustiga o`rnatilgan charxga kiydiradilar. Charx o`qining bir tomoniga ikkinchi charxni bog`laydilar, ikkinchi charxning yoniga o`qini tik qilib uchinchi charxni o`rnatadilar. Ho`kiz ana shu charxni aylantirganida, uning parraklari ikkinchi charxning paraklariga kirib, uchinchi – charxni aylantira boshlaydi. Suv tushadigan yerga nov o`rnatishib, undan suvni turli tomonga oqizadilar. Yana Ogra, Chandvar, Bayana va shu atrofdagi joylarda yerni chelak bilan sug`oradilar. Bu mashaqqatli ish, noplakligi ham bor. Quduq yoniga yog`och ayrilarni mahkam o`rnatib, ayrining orqasiga g`altak o`rnatadilar. Uzun arqonga katta chelakni bog`lab, uni g`altakka kiydiradilar. arqonning ikkinchi uchini ho`kizga bog`laydilar. Bir kishi ho`kizni haydashi, ikkinchisi chelakdagи suvni to`kishi kerak. [5.B.205].

Ana shunda qiyinchiliklar bilan sug`orilgan yerlarda hosil albatta mo`l bo`ladi. Ayniqsa mevalari ham juda shirin va totli bo`ladi. Xususan Anba mevasi boshqalaridan ajralib turadi.



Anba mevasi

Bobur Hindiston mevalaridan, chunonchi, anba haqida mukammal va muhim ma’ lumotlarni bizga manzur etadi: “ Hindistongagina xos mevalaridan biri anbadar... Yaxshisi yaxshi bo`ladi, ko`p yeish mumkin. Lekin yaxshisi kam bo`ladi. Uni aksar xom uzadilar: uyda turib pishadi. Xomi yaxshi osh qatig`i bo`ladi. G`o`rasining murabbosi ham yaxshi bo`ladi. Darhaqiqat, Hindistonning yaxshi mevasi shudir. Ba’ zi odamlar anbani juda maqtab, qovundan boshqa barcha mevalardan ustun qo`ygan edilar. El maqtaganicha emas. Kordiy shoptoliga o`xhashligi bor. Pashakaal vaqtida pishadi. Ikki xil yeyiladi: birini siqib, po`la qilib, terisini teshib, so`rib suvini ichadilar; yana birini kordiy shoptolidek terisini archib yeydilar. Yaproqlari shoptoli bargiga o`xshaydi. Tanasi ko`rimsiz va hunukdir” . [6.B.22].

Zahiriddin Muhammad Boburning o`z asarlarida Hindistonni bunday ta’ rifalagani bu mamlakatga bo`lgan behad mehr-muhabbatidan dalolatdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.Qayumov:” Zahiriddin Muhammad Bobur” -T.:” Fan” n-2008, 36-bet
2. Boburnoma” -T.:” O`qituvchi” n-2008, 204-bet
3. Boburnoma” -T.:” O`qituvchi” n-2008, 204-bet
4. Boburnoma” -T.:” O`qituvchi” n-2008, 205-bet
5. Boburnoma” -T.:” O`qituvchi” n-2008, 205-bet
6. Vahob Rahmonov:” Boburshoh: Shoir va Adib” -“ Ma`rifat” g-2008, 14-bet